



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI

“MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI” KAFEDRASI

**“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi 401-guruh
talabasi Qodirov Zohidning**

REFERAT

**MAVZU: O'zbekistonning mustaqillik rivojlanishining o'ziga xos
o'ziga mos ro'li.**



Ilmiy rahbar:_____T.Yusupov.

Kafedra mudiri:_____M.Sobirova.

Toshkent – 2014

Reja:

Kirish.

I BOB. O`zbekiston mustaqilligi va milliy g`oyaning zarurligi.

1.1. Demokratik o`zgarishlarni chuqurlashtirishda milliy o`zlikni anglasi, ozod shaxsning aks etishi.

1.2. O`zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g`oyaning zarurligi va ahamiyati.

II BOB.

2.1. Milliy g`oyaning bosh maqsadi va uning jamiyat hayotini demokratlashtirishdagi o`rni.

2.2. Milliy g`oyada milliy rivojlanish va demokratiy tushunchalarining o`zaro munosabati.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish.

Mavzuning dolzar; Mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilishda milliy g'oyaning o'rnini hech boshqa biron bir omil bosolmaydi. SHu nuqtai nazardan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini ma'naviy jihatdan ta'minlash, bugungi kunda mamlakatimiz taqdiri uchun o'ta dolzarb masaladir. Buning yorqin ifodasi Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining o'n to'rtinchi sessiyasi (2004 yil 29 apreľ)dagı «Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukılmas irodasiga bog'liq» haqidagi nutqida hamda Oliy majlisning mamlakatimiz fuqarolariga murojaatnomasida bayon etdi. Xususan unda shunday deyilgan: «Bugun bashariyat o'ziga xos va ziddiyatli bir davrda yashamoqda. Bir tomondan ilm-fan va texnika, yuksak texnologiyalar taraqqiy etib, insonparvarlik g'oyalari, demokratik qadriyatlar, o'zaro hamkorlik dunyo bo'ylab qaror topib bormoqda. Ayni vaqtda yer yuzining turli mintaqalarida qurolli mojarolar ro'y berayotgan, xalqaro terrorizmning yangi-yangi xurujlari oqibatida ming-minglab odamlarning hayotdan ko'z yumayotgani ham shu zamonning ochiq haqiqatidir»¹.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin milliy g'oya va mafkurani o'rganish ijtimoiy siyosiy zaruratga aylandi. Chunki bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga eski qarashdagi va fikrdagi odamlar bilan o'tish qiyin kechadi. Insoniyat tarixiy taraqqiyotning sivilizatsiyalashgan davri tajribasi biron-bir jamiyatning ezgu g'oyalarsiz va sog'lom mafkurasiz rivojlana olmasligini tasdiqlamoqda. Mustaqillikka erishgan mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan o'zbek xalqi ham o'z oldiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish kabi buyuk ezgu maqsadlarni qo'ydi. Ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirish, mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etishda, bizga yot va begona mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga etkazish, g'oyaviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va nihoyat, yurtning yuksak taraqqiyotini ta'minlash - milliy g'oyasini shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Mavzuning maqsadi: O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oyaning jamiyatimizni rivojlantirishda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishda xalqimizning orzu – intilishlari, maqsad - muddaolarni amalga oshishida muhim ahamiyat kasb etishi tushuntiriladi va shu bilan birgalikda yot va zararli g'oyalarga kurash yo'llari mafkuraviy immunitetni shakllantirishda odamlarni yagona g'oyaga ishontrish, uyushtirish, safarbar etish ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish va g'oyaviy tarbiyalash asosiy maqsadlar hisoblanadi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning o'zbek modeli, milliy g'oyaning mazmun va mohiyati, tarixiy-falsafiy asoslari, uni xalqimiz ongi va shuuriga singdirishning usul va vositalari haqida bilim va ko'nikmalar berib

¹ «Xalq so'zi» 2004 yil 30 apreľ.

borish, g'oyaviy immunitet va g'oyaviy bo'shliq tushunchalarining mazmun va mohiyatini tushuntirib berishdan iborat.

Mavzuning vazifasi: O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda odamlarimizda mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurini shakllantirish, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolar ongida «O'zbekiston yagona vatan tushunchasini» qaror toptirish, mustaqillikni mustahkamlash, yurtimizni ozod va obod etish, farog'on jamiyat qurishdan iborat. «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanga oid bilim va tushunchalarning barchasini pedagogik tamoyillar asosida o'quvchi yoshlar ongiga singdirib borishdan, yoshlarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini uyg'otishdan, ularda g'oyaviy immunitetni shakllantirib, g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslikdan, bir so'z bilan aytganda, o'zi, oilasi, do'stlari, yurti uchun qayg'uradigan, har tomonlama yetuk, komil inson shaxsini tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iboratdir.

I bob. O'zbekiston mustaqilligi va milliy g'oyaning zarurligi.

1.1. Demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirishda milliy o'zlikni anglasi, ozod shaxsning aks etishi.

Mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilishda milliy g'oyaning o'rnini hech boshqa biron bir omil bosolmaydi. SHu nuqtai nazardan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini ma'naviy jihatdan ta'minlash, bugungi kunda mamlakatimiz taqdiri uchun o'ta dolzarb masaladir. Buning yorqin ifodasi Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining o'n to'rtinchi sessiyasi (2004 yil 29 aprely)dagi «Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmaz irodasiga bog'liq» haqidagi nutqida hamda Oliy majlisning mamlakatimiz fuqarolariga murojaatnomasida bayon etdi. Xususan unda shunday deyilgan: «Bugun bashariyat o'ziga xos va ziddiyatli bir davrda yashamoqda. Bir tomondan ilm-fan va texnika, yuksak texnologiyalar taraqqiy etib, insonparvarlik g'oyalari, demokratik qadriyatlar, o'zaro hamkorlik dunyo bo'ylab qaror topib bormoqda. Ayni vaqtda yer yuzining turli mintaqalarida qurolli mojarolar ro'y berayotgan, xalqaro terrorizmning yangi-yangi xurujlari oqibatida ming-minglab odamlarning hayotdan ko'z yumayotgani ham shu zamonning ochiq haqiqatidir»¹.

Milliy istiqlol g'oyasining turli xil fikr, g'oyalarga munosabati, uning ijtimoiy ma'naviy hayotda aks etishi usullarini anglash uchun eng avvalo, turli xil g'oyava mafkura tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganmoq zarur. Ma'lumki, har qanday tushuncha, fikr va qarash ham milliy g'oyabo'la olmaydi. CHunki, shaxsiy fikr - o'ziga xos qarashdir, ijtimoiy fikr esa - voqelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. G'oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug'ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi.¹ Demak, muayyan bir g'oyadastlab biron-bir kishining shaxsiy fikri sifatida paydo bo'ladi. Jamiyat hayotida turli xil fikr, va g'oyalarning o'zni muhim. Lekin, «yagona fikr»ga, «yagona g'oya»ga intilib, hukmronlik qilsa, u jamiyat rivojiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, «ikki odam aynan bir xilda fikrlamaydi» yoki turli xalqlar, mamlakatlar ham aynan bir-biriga o'xshashi, ya'ni bir xil tarix, til, madaniyat, urf-odat, qadriyatlarga amal qilish yoki yagona g'oya yoki maqsadni, rivojlanish yo'lini andoza sifatida olishi va faqat unga tayanish mumkin emas. U taraqqiyotning xilma-xilligi qonuniga to'g'ri kelmaydi.

Milliy istiqlol g'oyasining o'ziga xos jihati ham shundaki, u fikrlar va g'oyalar xilma-xilligini tan oladi. Jamiyat mafkurasida biron-bir fikr, g'oyani «mutloq g'oya», «oxirgi, tugal» ko'rinish sifatida da'vo qilishga asoslanmaydi. Erkinlik, fikr erkinligi, fikrlar xilma-xilligi tamoyillari milliy istiqlol g'oyasi uchun muhim o'rin tutadi va jamiyat taraqqiyotini rivojlantiruvchi omil sifatida namoyon

¹ «Xalq so'zi» 2004 yil 30 aprely.

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: «O'zbekiston», 2001. 9-b.

bo'ladi. Fikr erkinligi va fikrlar, g'oyalarxilma-xilligiga asoslanish taraqqiyotni ta'minlab turuvchi, inson salohiyatini oshirib turuvchi noyob imkoniyatdir.

O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tadbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan shak-shubhasiz samarali foydalanadi. Gap biron-bir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergan taqdirda ham, ko'r-ko'rona ko'chirib olish to'g'ri emas. Aksincha, aniq-ravshan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha mamlakatning o'ziga xos sharoitidagina ijobiy natija beradi.

Jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning qat'iy pozitsiyasidir.

O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.

Jamiyat taraqqiyoti muayyan fikrlar, g'oyalar, mafkuralar tarixidir. Jamiyat taraqqiyotida kishilarning tevarak olam sirlarini o'rganishi, tabiat va jamiyat qonunlarini kashf etishi, tabiiy bilimlari va dunyoqarashlari juda muhim ahamiyatga ega. Dunyoning tuzilishini tushuntirgan va unda qanday yashash lozim-ligini ko'rsatgan ilmiy bilimlarning yuzaga kelishida insoniyatning eng ilg'or vakillari yaratgan dunyoviy g'oyalar hamisha taraqqiyot uchun xizmat qilib kelgan.

Inson tafakkuriga tayangan fan taraqqiyoti olam kabi uzluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda tasdiqlanmagan, eskirgan fikrlar yangi ilmiy g'oyalar bilan o'rin almashaveradi. Millatlar tashkil topgan davrlar-dan, milliy g'oya va mafkuralar eng dolzarb, siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy masala hisoblanib, jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, ommani ma'naviy ruhiy jihatdan tarbiyalashga katta hissa qo'shgan.

Inson kamolotini fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, jamiyat tarixini ham g'oya va mafkuralarsiz tushuntirib bo'lmaydi. G'oya va mafkura, ayniqsa, milliy g'oya birdaniga qisqa muddatda paydo bo'ladigan hodisa emas. Aslida guyo birdaniga paydo bo'lganday tuyulgan g'oya zahirida ham ongning ko'p asrlik taraqqiyoti yotadi. SHu jihatdan qaralganda milliy g'oya uzoq jarayonlarning hosilasi bo'lib, o'zida xalqning tarixi, dunyoqarashi, maqsad va intilishlari, ma'naviyatini mujassam etadi.

Milliy g'oya va mafkura har bir fuqaro ongi va shuuriga chuqur ta'sir qilib uning oila, mahalla, jamiyat, davlat, xalq oldidagi burch va mas'uliyati qay darajada ado etilayotganini nazorat qilib turadi.

Milliy g'oya - millat tafakkurining ko'p asrlik mahsuli va davr taqozosi bilan takomillashib boruvchi uzluksiz hodisadir. Falsafada, fikrlayapman, demak yashayapman, degan hikmat bor. Milliy g'oya - inson va jamiyat hayotiga ma'no -mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui, xalq hayotining fikriy ifodasidir.

Har qanday tushuncha, fikr va qarash ham milliy g'oya bo'la olmaydi. Chunki shaxsiy fikr o'ziga xos bir qarashdir. Ammo u o'sib, ijtimoiy fikrga

aylanishi mumkin. Boshqacha aytganda, fikrsiz g'oya yo'q. Ijtimoiy fikr esa - voqelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqazo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. G'oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug'ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi.

Milliy mafkura - mohiyatan milliy g'oyaga yetish yo'li. Nima qilinsa shu g'oyaga intilish tezlashadi, osonlashadi, maqsad amalga oshadi, qanday ish tutilsa mazkur g'oyaga zid harakatlarning yo'li to'siladi - milliy mafkura aynan shu savollarga javob beradi va o'ziga xos vazifalarga ega.

Ilmiy tarzda aytganda milliy mafkura - taktika bo'lib, tarixan diniy, axloqiy, huquqiy, siyosiy, estetik, falsafiy shakllarda namoyon bo'ladi.

Milliy mafkura - xalqning o'zgalarga tobe bo'lmay erkin va ozod yashashi, o'zini o'zi idora etishga qaratilgan, uning istiqbolini belgilaydigan orzu umidlari, qarashlari, eng ilg'or fikrlari majmuidir.

Prezidentimiz «Tafakkur» jurnali bosh muharriri bilan bo'lgan suhbatda mafkuraga, xususan milliy mafkuraga bo'lgan munosabatini kontseptsiya sifatida shunday ifodalaydi: «Odamlarning, ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman».

Darhaqiqat, mafkura o'tmish, bugungi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos tafakkur ko'prigi va millatni birlashtiruvchi bayroqdir. O'zbekistonda bir yuz o'ttizdan oshiq millat, elat va etnik guruhlar bir mamlakat hududida yashar ekan, ularning bir maqsadni ko'zlashi, o'zaro uyg'unlikka ega bo'lishi, milliy birlikni vujudga keltirish uchun, albatta, o'zaro o'ziga xos bir milliy mafkurasi bo'lishi hayotiy zaruriyatdir. SHuning uchun ham mafkura bugungi kunimizda ko'p millatli xalqimizni bir davlat miqyosida, bir yurt xalqini bir hududda birlashtiruvchi asosiy kuch sifatida ham maydonga kelishi mustaqil taraqqiyot talabi hisoblanadi.

Milliy mafkura bizda davlat mafkurasi emas. Ma'lumki, har qanday davlat mafkurasi ma'lum darajada kuchga asoslanadi. Milliy mafkura esa ixtiyoriylikka tayanib, mamlakat xalqining manfaatlarini himoya qiladi, shunga asoslanadi. Milliy mafkurasi kuchli xalqlarda «men» va «jamiyat» degan tushunchalar o'zaro birikib, uyg'unlashib ketadi. CHunki endi har bir shaxs tashlagan qadami, yurgan yo'li, qilgan ishi bo'yicha o'ziga-o'zi: «Men uchun-ku bu yaxshi, lekin xalqim, mamlakatim uchun-chi?» deb savol beradigan bo'ladi.

O'ylab ko'rilsa, hech kimning o'z xalqi manfaatiga zid ish ko'rishga haqqi yo'q. Lekin hammaning shu darajada yuksak ma'naviy mezonga javob beradigan darajaga yetishi uchun kuchli milliy mafkuraga ergashgan tafakkuri bo'lishi kerak.

Milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish taraqqiyotimizning bebaho manbai bo'lmish inson omilining safarbar qilinishi bilan qadrli. Zero, islohotlar avval odamlarning ongida, keyin ishlarida amalga oshadi.

Milliy g'oya va milliy mafkura murakkab jarayon bo'lib, o'nlab yillar davomida shakllanadi. U qotib qolgan nazariya emas, davr, vaqt o'tishi bilan

takomillashib, rivojlanib boradi. Buning uchun muntazam, uzluksiz, sabr-toqat bilan ma'naviy-marifiy va targ'ibot ishlarini olib borish zarur.

Ma'naviy barkamollik, mafkuraviy sobitlik namunasini xalq, avvalo, joylardagi rahbarlarda, ziyolilarda ko'rishi kerak. Rahbar kadr, ziyolining, murabbiyning mafkurasini, imon - e'tiqodi mustahkam bo'lsa, uning aytgan har bir so'zi targ'ibotchining so'ziga, g'oyaga aylanadi. Bu esa davlat, jamiyatni yanada qudratli qiladi.

Milliy g'oya va milliy mafkura jamiyatning ma'naviy hayotiga o'ziga xos ichki mushtaraklik, bus-butunlik va umumiy maqsad bag'ishlaydi. Agar milliy g'oya va milliy mafkura xalqning tub manfaatlarini ifodalay olsa, jamiyat miqyosida aksariyat fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va sinflar tomonidan tan olinsa, ma'naviyatning barcha sohalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Milliy g'oya turli sinflar, tabaqalar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar manfaatlaridagi umumiylikni, ya'ni umummilliy manfaatlarni, xalqning orzusini aks ettiruvchi g'oyadir. Ushbu sifatda u millatning jipsligini ta'minlovchi, o'zligini anglatuvchi ma'naviy omildir.

Milliy mafkura milliy g'oya tevaragida shakllanadi va u ifodalagan oliy maqsad yo'lida jamiyat a'zolarini etnik mansubligidan, ijtimoiy ahvolidan, jinsi, yoshi, tilidan qat'iy nazar jipslashtiradi. Boshqavcha aytganda, milliy g'oya milliy mafkura orqali xalqning kuch g'ayratini, irodasini, aqliy va hissiy salohiyotini belgilangan amallarga, orzu-umidlarga erishish tomon yo'naltiradi. Bu yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga safarbar etadi.

«Milliy istiqlol mafkurasini xalqimizning azaliy an'alarimizga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonib, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim. SHu bilan birga bu mafkura xalqimizga o'zining qudrati va himoyasiga suyangan xolda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli o'laroq munosib o'rin egallashiga doimo intilish hissini tarbiyalamog'i kerak».

SHubhasiz, aynan milliy mafkuragina fikr qaramligi, tafakkur qulligining oldini olishga xizmat qiladi, milliy jipslikni, taraqqiyotni, mamlakatimizning tom ma'nodagi buyuk kelajagini ta'minlaydi.

Mafkuraviy tahdid va mafkuraviy immunitet. Insoniyat tarixi fikrlar, g'oyalar kurashidan iborat bo'lib kelgan va biz yashayotgan davr ham bundan mustasno emas. Fikrsiz inson bo'lmaganidek, g'oya, mafkurasiz jamiyat ham bo'lmaydi. Biroq shunday paytlar bo'ladiki, muhitda mafkuraviy bo'shliq yuzaga keladi va bu jamiyat uchun juda tahdidlidir.

Hozirgi paytda, mafkuraviy tahdidlar eng, avvalo mafkuraviy bo'shliq tufayli sodir bo'lmoqda. Ma'lumki, hayotda ma'lum bir tajribaga ega bo'lgan, achchiq-chuchukni ko'rgan kishilarning, yaxshimi - yomonmi, dunyoqarashini o'zgartirish juda qiyin. Mafkuraviy tahdidlar, avvalo yoshlar uchun xaffidir.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ma'lum bo'ldiki, bizda asosan, hali hayotiy tajribaga ega bo'lmagan, oq-qorani, yaxshi-yomonni tanib ulgurmagan yoshlar har turli yot g'oyalarga, turli ta'sirlarga tez berilmoqda.

O'zbekiston mustaqilligiga tahdid soladigan intilish va harakatlarning

zararini qirqish uchun joylarda rahbar kadrlar, murabbiylar fuqarolar, xususan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, g'oyaviy-mafkuraviy sohadagi muammolarni aniqlab, uni hal etish choralari ko'rishlari, milliy qadriyatlarimizni, boy ma'naviy merosimizni keng targ'ib qilishlari yaxshi samara beradi.

Prezident «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblarida aytganlaridek: «Har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida Ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas fikriga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchayti-rishimiz zarur».

Darhaqiqat, xalqimizni turli mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonunlarini o'zida chuqur aks ettiradigan sog'lom, insonparvar mafkura bilan qurollantirish zarur.

Fuqarolarimiz, avvalo yoshlar mustaqil dunyoqarash-ga ega bo'lib, ularda milliy istiqlol g'oyalarini chuqur anglash hissi shakllansa, johil aqidaparastrlarning «da'vati» ham, ahloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Bunda biz har qanday g'oya tashviqotchisi inson orqali jamiyatga ta'sir ko'rsatishini doimo nazarda tutishimiz kerak.

G'oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta'siri. G'oyaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o'zi g'oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. O'zi yaratgan g'oyalari insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e'tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi.

Yuksak g'oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari yetaklaydi. G'oyasi yetuk, e'tiqodi butun, qadriyat-lari yuksak insongina mardlik namunalarini ko'rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqkan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning SHiroq va To'maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari - buyuk g'oya sohiblaridir.

Ming yillar o'tsa ham, buyuk ajdodlarimizning matonati qahramonligi xalqning xotirasidan o'chmay-di. CHunki ular yuksak g'oyalar - Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu urfon rivoji yo'lida jon fido qilganlar. Rivoyatlarga ko'ra, Ahmad Yassaviy 60 yildan ziyod umrini yer ostida o'tkazganida ham, Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug'vor g'oyalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan

Jahon tarixidan, jumladan, xalqimizning o'tmishidan ham, qaysi sohada bo'lmasin, mardlik va jasorat ko'rsatish uchun insonga albatta ulug'vor g'oya kerak ekaniga ko'plab misollar topiladi.

1.2. O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oyaning zarurligi va ahamiyati.

G'oyalar hamma zamonlarda ham dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala hisoblanib, jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, ommani ma'naviy-ruhiy jihatdan tarbiyalab kelgan.

Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatdagi mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida, yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib etadi.

G'oyaviy jarayonlar insoniyat, jamiyat tarixiy taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Insoniyat tarixida g'oya va milliy g'oyalarning o'rnini beqiyos. O'z o'rnidagi g'oyaviy jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bevosita aloqador.

G'oyalarning muayyan bir davlatchilikning shakllanishi va taraqqiyotida, ilmiy tafakkur rivojida alohida o'rnini bor.

Izlanishlarning natijasi sifatida o'tgan asrimizda atom kashf qilindi. Bu kashfiyot insoniyatning olam tuzilishi to'g'risidagi tasavvurlarining butunlay o'zgarishiga olib keldi. Bugungi kunda ham yangidan yangi kashfiyotlarning yaratilishi ham avvalo muayyan bir g'oyalarning shakllanishi bilan bog'liqdir.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, har bir davlat va xalqning o'z oldiga qo'yan aniq maqsadi uni amalga oshirishda jamiyat ahlini birlashtiradigan, safarbarlikka undaydigan milliy g'oya bo'lmasa u muqarrar ravishda halokatga mahkum bo'ladi.

Maqsad esa – xalqni, millatni birlashtiruvchi, unga kuch-qudrat, ruhiy ozuqa beruvchi, istiqbolga boshlovchi bayroqdir. Yurtboshimiz fikrlari bilan aytadigan bo'lsak, «Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlantiradigan ulug' kuchdir.

Davlatimizning, xalqimizning, yurtimizning maqsadi o'zining ulug'vorligi, hayotiyliigi va haqqoniyliigi bilan hammamizni jalb etadigan bo'lmog'i lozim. Toki bu maqsad xalqni xalq, millatni millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga aylansin!» Hozirgi voqelikda Milliy istiqlool g'oyasi va mafkuralar orasidagi munosabatlar mafkuraviy kurash, mafkuraviy qarshi turish, psixologik urush shakllarida kechmoqda. Yot mafkuralar mafkuraviy kurashlarning ming yillik uslublarini, shuningdek, zamonaviylashtirilgan uslublari: axborot

maydonini egallab olish; mafkuraviy diversiya, siyosiy indoktrinatsiya, mafkuraviy infiltratsiya, dezorientatsiya, mafkuraviy qo'poruvchilik harakatlarini qo'llash orqali xalqimizda O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishonchsizlik uyg'otishga, davlat siyosatini obro'sizlantirishga, odamlarning o'zini Vatan, millat himoyasidan

chetga tortishga, loqaydlikka erishishga intiladilar. Bunda ular biror xususiy faktni umumlashtirish (ekstrapolyatsiya), yolg'onni haqiqatga o'xshatib tasvirlash, kichik muammodan katta yolg'on yasash, bir narsani takrorlayverish, tuyg'uni aqldan ustun qo'yish, tinglovchining shaxsiy manfaatni birinchi o'ringa qo'yib, (unga do'st bo'lib ko'rinish) «hasratlashish», hukumatlarni xalqlarga yomon ko'rsatish, millat dushmanlariga rahmdillik, hamfikrlik tuyg'ularini uyg'otish, masalan odamlarga tanish, qadrdon ma'lumotlarni ishlatib, (falon joyda falon voqea bo'ldi), deb rostga yolg'onni ulab yuborish uslublaridan mafkuraviy kurashda foydalanayapti.

Har qanday jamiyat bunday makkor tahdidlarni yengishi uchun o'zida ogohlik, mafkuraviy xavfsizlik, to'kislik, jangovarlik, safarbarlik, umummilliy birlik kabi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi kerak. Buning uchun Milliy istiqlol mafkurasining yot mafkuralarga qarshi kurash uslublari, jumladan, buzg'unchi g'oyalar mohiyatini fosh qilishga qaratilgan targ'ibot, mafkuraviy monitoring va tahdidlar mohiyatini xalqimiz ongi va qalbiga yetkazish, jaholatga qarshi ma'rifat tarqatish uslublaridan doimo va hamma joyda foydalanish taqozo qilinadi.

Sobiq sovet mustabid tuzumi davrida yosh avlodlar ongini kommunistik tarbiya o'z iskanjasida tutdi. Kommunistik mafkura insonlar ongi va qalbini egallagan edi.

2.1. Milliy g'oyaning bosh maqsadi va uning jamiyat hayotini demokratlashtirishdagi o'rni.

Taraqqiyot saboqlaridan ayon bo'lmoqdaki, dunyodagi g'oya va milliy g'oyalar qanday shaklda bo'lmasin, ular avvalo inson qalbidagi ikki tuyg'u - bunyodkorlik va buzg'unchilik intilishlaridan kuch oladi. G'oyaviy nuqtai nazardan olganda, insoniyat tarixi xilma xil g'oya va milliy g'oyalarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzluksiz jarayondir.

G'oya va milliy g'oyaning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini, azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va buzg'unchilik o'rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi, ya'ni bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik milliy g'oyalarga qarama-qarshi o'laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari uzluksiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog'iga aylangan.

Bir so'z bilan aytganda, bunyodkorlik g'oyalari taraqqiyotga xizmat qiladi, davlat va jamiyatni, insonlarni ezgulikka yetaklaydi. Bunday g'oyalarga quyidagi g'oyalar misol bo'la oladi:

Ozodlik g'oyalari Tinchlik g'oyalari Tenglik g'oyalari Do'stlik g'oyalari
Hurfiylik g'oyalari Bag'rikenglik g'oyalari Mustaqillik g'oyalari
Adolat g'oyalari Hamkorlik g'oyalari Birdamlik g'oyalari
Ma'rifatparvarlik g'oyalari Xalqparvarlik g'oyalari .

Buzg'unchilik g'oyalari xalqlar boshiga so'ngsiz kulfatlar keltiradi. Bunga olis va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Inson va jamiyat bor ekan, ezgu g'oyalarning teskarisi bo'lgan zulm va zo'ravonlik, qabohat va jaholat yangidan yangi shakllarda namoyon bo'lishga intiladi. Lekin ular odamzotning adolat, tinchlik va birodarlik, taraqqiyot va farovonlik g'oyalarga tayanib, oliy maqsadlar sari intilishlarini aslo to'xtata olmaydi.

Inson hayoti uning ongida kechgan fikrlar kurashi, jamiyat hayoti g'oyalar, mafkuralar kurashidan iboratdir. SHu sababli Prezidentimiz asarlarida «Mafkura bo'lmasa har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrarligi», jamiyatda mafkuraviy, insonlar ongida fikriy bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmasligi kontsepsiyasining ishlab chiqilishi, biz o'rganayotgan fanning tamal toshlaridan biridir. Hozirgi zamonda bunyodkor va buzg'unchi g'oyalarning kurashi ayon ko'rinib turibdi. Biroq g'oyaga qarshi, u qanchalik yovuz bo'lmasin qurol bilan kurashish, faqat yovuzlikni tug'diradi. SHu sababli Islom Karimov bayon etgan: «Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» tamoyili hozirgi davrda na faqat mustaqil mamlakatimiz, balki butun jahon xalqlarining tinchligi, farovonligi mamlakatlari taraqqiyotida ulkan ahamiyatga ega.

U yoki bu g'oyaning milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi millatning o'tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog'liqdir. Zero, ana shu ikki negizga tayangan holdagina biror millatning qisqa yoki uzoq vaqtda erishishi lozim bo'lgan maqsad-muddaolari va mo'ljallarini to'g'ri ifodalay olishi mumkin.

Tom ma'nodagi milliy g'oya, oxir-oqibatda, ozmi-ko'pmi umuminsoniyat taqdiriga ta'sir qiladi. SHu ma'noda, xar qanday milliy g'oyada umuminsoniy mohiyat mavjud bo'ladi. Ammo, aniq bir muddat yoki umuman insoniyat

uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalar ham bor. Aytaylik, «milliy yarash» g'oyasi fuqarolar urushi ketayotgan davlat uchun hayotiy mazmunga ega bo'lsa, «manfaatli hamkorlik» g'oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatlidir. Har bir xalq o'z tarixining burilish nuqtalarida, avvalo mafkura masalasini, uning o'zagini tashkil etadigan, o'ziga xos o'q, birlashtiruvchi yadro vazifasini o'taydigan ijtimoiy g'oyani shakllantirish muammosini hal qiladi.

Mamlakatimiz uchun milliy g'oya haqidagi masalaning bugungi amaliy ahamiyati shundaki, biz o'tish davrini boshdan kechirmoqdamiz. Aynan shunday paytda aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi mafkuralarning shakllanishiga sharoit tug'ilishi mumkin. SHunday ekan, millat, jamiyatning parokanda bo'lib ketishiga yo'l qo'yib bo'lmayda. Aks xolda siyosiy, xuquqiy, iqtisodiy islohatlar o'z ahamiyatini yo'qotadi, mustaqillik yo'lida g'ov paydo bo'ladi.

O'zlikni anglash tarixiy xotirani tiklash omili sifatida. Biz ba'zan oynai jahon orqali qandaydir sabab bilan xotirasini yo'qotgan kishilar haqidagi filmlarni ko'rib qolamiz. Ular ota-onasi u yoqda tursin, hatto o'z ismlarini ham unutib, faqat shakllangan odam, aslida ayanch jonivorlarga aylanib qoladilar. Endi xotirasiz xalqni tasavvur qiling. Bu chinakam fojeadir. Xotira shaxs uchun ham, xalq uchun ham bebaho ne'matdir. Har qanday xotirada, hatto yosh bola yodida ham tarixiylik elementlari bo'ladi. Tarixiylik xotiraning tayanchidir. SHu sababli bosqinchilar doimo xalqning xotirasini, ya'ni tarixini yo'qotishga harakat qilganlar. CHunki xotirasiz xalq manqurt bo'ladi. Buyruq berilsa bas, o'zini o'zi qira boshlaydi.

Tarixiy xotira - inson ma'naviyatining ajralmas qismi, o'tmishni bilish, uni qadrlash, undan saboq olish natijasidir. Bu borada Prezident Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz- kelajak yo'q» nomli asari katta ahamiyatga ega. Unda o'tmishga xolis yondashish, uni qadrlashga alohida e'tibor qaratilgan. Zero, tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi, ularni dilga jo etib, bunyodkorlik va yaratish yo'lidan izchil borishga undaydi.

Buyuk mutafakkir Beruniy ta'kidlaganidek, «o'tmish kelajakning kalitidir». Uni bilish imkoniga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik tufayli xalqimiz tili, madaniyati, urf- odatlari, an'analari, qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'z tarixini mukammal bilish imkoniga ega bo'ldi.

Tarixiy xotira qanchalik boy, mazmunli bo'lsa, xalq shunchalik uyushgan, hamjihat, ulg'vor ishlarni bajarishga qodir bo'ladi. Tarixiy xotiraning o'ziga xos jihatlaridan yana biri o'z o'tmishidan faxrlanish tuyg'usidir. Dunyoda hududi O'zbekistondan bir necha marta katta bo'lgan ba'zi davlatlar ham, aholisi o'rtoq bo'lib yashashni boshlagan moziyning azaliyligi, o'nlab shaharlarining tarixi 2500 yildan ortiqroq ekanligi bilan g'ururlana olmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, tarix shunday manbaki, u insonning o'zini anglashi, jamiyat oldidagi burchi, ajdodlar ruhi oldidagi mas'uliyatini to'g'ri tushunishiga, istiqbolni to'g'ri belgilashga imkon beradi. Bugungi tarixni, unutilgan ta'limotlarni tiklash payti keldi. O'rta asrlardagi buyuk mutafakkirlarimiz merosida har taraflama ishlab chiqilgan «Komil inson» haqidagi nazariya ham o'z mohiyati bilan g'oyat mukammal ta'limot bo'lgan. Lekin ma'lum tarixiy muhitda va

ma'lum bir sabablar tufayli unutilgan edi. Chunki, «komil inson» tushunchasi keyingi asrlar davomida G'arbiy Yevropa fanida insonga berilgan barcha ijobiy ta'rif va tavsiflarni o'sha davrdayoq o'z ichiga olgan edi. Komillik tushunchasi tarixiy nuqtai nazardan ham, zamonaviylik nuqtai nazaridan ham insondagi barcha oliyjanob fazilatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Komil inson g'oyasi- ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyjanob g'oyadir. Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni balki, butun-butun-xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat bobida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan.

Komil inson azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. U islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma'no-mazmun kasb etgan. Barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida, ayniqsa, o'zining teran ifodasini topgan.

Madaniy merosimizning ilk namunalaridan biri «Avesto»da ham komillik g'oyasiga alohida e'tibor qaratilganligini ko'ramiz

Vatanimiz tarixidan ma'lumki, umuman ta'lim va tarbiya muammolari va xususan komil inson masalasiga doimo ulkan ma'rifiy vazifa sifatida qarab kelingan. Bu masala ayniqsa, tasavvufning bosh mavzularidan biri bo'lgan va o'tmish allomalari ijodida ham o'z ifodasini topgan. O'rta asrning yirik namoyondalari Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Lutfiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab allomalar ham o'z asarlarida komil inson tarbiyasi bilan bog'liq qimmatli fikrlarni bayon qilganlar.

Insoniyat tarixi – turli g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar, milliy g'oyalar tarixi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Negaki, ularda kishilarning asriy orzu-istaklari, niyatlari, maqsad-vazifalari o'z ifodasini topib kelgan. Azaldan turli g'oyalar, ta'limotlar, milliy g'oyalar muayyan bir millatning, davlatning, xalq va jamiyatning manfaatlarini himoya etib, ularni birlashtirib, ma'lum bir maqsad sari yo'naltirib kelgan. Uzoq o'tmishimizning qaysi bir davrini ko'zdan kechirmaylik, muayyan bir g'oya butun-butun xalqlarni, millatlarni birlashtirib, ma'lum bir maqsadlar sari yetaklab kelganligining guvohi bo'lamiz.

Nainki sharq mamlakatlarida, balki butun dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan ko'plab allomalarimizning boy madaniy, ma'rifiy merosiga nazar tashlar ekanmiz, ularda ham ma'lum ma'noda qaysidir g'oyalar ilgari surilganligini teran anglab yetamiz.

Biz o'rganaetgan «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar»fani ham mustaqillik yillarida shakllangan, xalqimizning asriy orzu istaklarini, istiqlol tafakkurini o'zida mujassam eta olgan yangi fandir. Bu fan har birimizga yashashimizdan maqsad nima ekanligini, insonlik va insoniylikning mohiyatini, mustaqillikning hech bir tushuncha bilan almashtirib bo'lmas buyuk qadriyat ekanligini anglashimizga; Vatan nima, kindik qonimiz tomgan tuproq nima, oila, mahalla qanday tushunchalar, hayotimizda ularning qanday o'rni bor, ozodlik nima, o'zgalarga qaram bo'lish nima - bularning barchasi haqida chuqurroq o'ylab ko'rishimizga, mushohada yuritishimizga imkon yaratadi, ko'mak beradi. Aynan mana shu maqsadda mazkur fan yuzaga keldi, ya'ni 2001 yil 18 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning «Milliy istiqlol

g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida»gi Farmoyishi qabul qilindi. Ushbu Farmoyishda "2001 yilning 25 fevraliga qadar oliy ta'lim muassasalari uchun ma'ruza matnlarini yaratish, Davlat matbuot qo'mitasi bilan hamkorlikda chop etish va joylarga yetkazishni tashkil qilsinlar"¹ deyiladi.

SHuningdek, 2006 yil 25 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Aslida bu fanning yuzaga kelishi yangi asr boshidagi zarurat edi. Chunki, milliy g'oya jamiyatimiz taraqqiyotining g'oyaviy tamoyillarini o'zida ifoda etadi, bu g'oya mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan g'oya to'g'risidagi yaxlit, izchil ta'limotdir. Bu ta'limot o'z tushuncha va tamoyillariga, tarixiy negizlariga, ilmiy, falsafiy, dunyoviy va diniy, milliy hamda umumbashariy ildizlariga ega muayyan tarixiy zaruriyat mujassam bo'lgan nazariyadir.

Har bir fanning predmeti, o'z oldiga qo'ygan maqsadi, ayni shu maqsaddan kelib chiqadigan vazifalari bo'lgani kabi, «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» o'quv fanining ham o'z predmeti, maqsad va vazifalari mavjud.

«Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» o'quv fanining o'rganuvchi manbalari – bular: g'oya va milliy g'oya tushunchalaridir. Ya'ni, biz dars mashg'ulotlari davomida g'oya nima, milliy g'oya nima, milliy g'oya deganda nimani tushunamiz, g'oya va milliy g'oyalarning qanday shakllari, turlari mavjud, insoniyat tarixida g'oya va milliy g'oyaning yuzaga kelishi, uning diniy, dunyoviy, tarixiy, falsafiy manbalari, milliy g'oya yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar, manbalar qaysilar kabi savollarga javob topishga, bu boradagi bilim va ko'nikmalarni egallashga harakat qilamiz.

Demak, milliy istiqlol g'oyasining predmetini – milliy g'oyaning shakllanishi, keng jamoatchilikning ishonchi va e'tiqodiga aylanishi, uning madaniy negizlarini ijtimoiy hayot, mehnat faoliyatida namoyon bo'lish shart-sharoitlari, omillari, qonuniyatlarining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish tashkil etadi.

«Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» o'quv fanining maqsadi, o'quvchi yoshlarga g'oya va milliy g'oya, uning tarixiy shakllari va ko'rinishlari, turlari, bugungi dunyoning g'oyaviy manzarasi, g'oyaviy jarayonlarning globallasuvi, jahon maydonlarinig'oyaviy bo'lib olishga urinishlar, O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning o'zbek modeli, milliy g'oyaning mazmun va mohiyati, tarixiy-falsafiy asoslari, uni xalqimiz ongi va shuuriga singdirishning usul va vositalari haqida bilim va ko'nikmalar berib borish, g'oyaviy immunitet va g'oyaviy bo'shliq tushunchalarining mazmun va mohiyatini tushuntirib berishdan iborat.

«Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» o'quv fanining asosiy vazifasi shu fanga oid bilim va tushunchalarning barchasini pedagogik tamoyillar asosida o'quvchi yoshlar ongiga singdirib borishdan, yoshlarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini uyg'otishdan, ularda g'oyaviy immunitetni shakllantirib, g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslikdan, bir so'z

¹ "Ma'rifat" gazetasi, 2001 yil, 20 yanvar.

bilan aytganda, o'zi, oilasi, do'stlari, yurti uchun qayg'uradigan, har tomonlama yetuk, komil inson shaxsini tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iboratdir.

Yuqorida e'tirof etib o'tilganidek, «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» o'quv fanini o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifasidir, to'g'rirog'i davrimiz aynan shu vazifani taqozo etadi.

O'zbekistonning hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'rifiy-ma'naviy zaminlarini yaratish va mustahkamlash uchun milliy g'oya suv va havodek zarur.

Har qanday daraxtdan mo'l hosil olish uchun ko'chat o'tkazishning o'zi yetarli bo'lmaganidek, milliy g'oya ham kutilgan samarani berishi uchun jamiyatimizdagi turli ijtimoiy qatlam va toifalar manfaati nuqtai nazaridan muttasil ravishda boyitib borish talab etiladi. Bu borada albatta birinchi navbatda oila, mahalla, atrof-muhit, tarbiya maskanlari, bilim dargohlarining o'rni katta.

Avvalo odamlar, xususan aholining 64 % dan ko'prog'ini tashkil etuvchi – yoshlar ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularning begona va buzg'unchi g'oyalarga ergashib ketishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Chunki ertangi kunimiz, yurtimizning ertangi taqdiri shu yoshlar qo'lida. Bu albatta xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi milliy g'oyani shakllantirishdek dolzarb vazifani amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Buning uchun har bir o'g'il-qiz bizning g'oyaviy dasturilamalimiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini teran anglashi, har bir bob, moddani puxta o'rganishi kerak bo'ladi.

Yoshlarni mustabid tuzumning "kommunistik g'oyasi" asoratidan xalos qilish, xalqimiz va jamiyatning buyuk maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirish, turli xil yot g'oyalardan himoya qilish zarurati ayniqsa daolzarbdir.

Zotan, o'zining hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oyasiz yashamagan, yashay olmaydi. Millatni birlashtiradigan yagona umummilliy g'oya, milliy g'oya bo'lmasa., har qanday davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. SHu o'rinda hech ikkilanmay, dadil aytilish mumkinki, O'zbekistonning milliy g'oyasi ana shunday butun O'zbekiston xalqini birlashtiradigan, shu xalqning maqsad va muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmish va kelajagini bir biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga, mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladigan, ezgu maqsadlarga undaydigan ma'naviy ruhiy rag'batlantirib, o'zaro hamkorligini, hamjihatligini ta'minlaydigan g'oyalar tizimidir.

Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida kuchlig'oyaviy immunitetni hosil qilish uchun milliy g'oyani kuchaytirish, buning uchun esa albatta mazkur fan oldiga qo'yilgan va yuqorida sanab o'tilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi.

Jamiyatning o'zini o'zi boshqarish darajasi kishilar ongining o'sishi, tafakkur madaniyatining yetukligi bilan uzviy bog'liqdir. Ma'lumki, odamlar yangilanishlarga, taraqqiyotga, tom ma'nodagi demokratiyaga ham g'oyaviy, ham ma'naviy jihatdan tayyor bo'lsalargina jamiyatimiz oldida turgan vazifalarni hal qilishga yordam bera oladilar. Buning uchun ularda kuchli madaniyat va ma'naviyat, uzoqni ko'ra bilishlik, donolik, ziyraklik va albatta kuchli g'oya

bo'lishi kerak.

Ma'lumki, hayotda har bir insonning o'z fikri, o'yi, kechinmalari mavjud. Ya'ni, har bir kishi biror bir muammo, hal qilinishi zarur bo'lgan masala paydo bo'lganda, o'zicha fikran uni yechish yo'lini izlaydi.

Uning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari yetaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanligidadir. Demak, g'oya yaxlit fikr bo'lishi bilan bir qatorda, yangilikni o'zida tashuvchi fikrdir.

Bir so'z bilan aytganda, g'oya – bu voqelikni aks ettirish va ilmiy bilishning o'ziga xos shakllaridan biri bo'lib, inson tafakkurining mahsuli hamda, inson va jamiyatni ma'lum bir maqsad sari yetaklovchi umumiy fikrlar yig'indisidir. G'oya eng avvalo ilmiy fakt, muammo, gipoteza, nazariya, kelajakni bashorat qilish shaklida namoyon bo'ladi. U odatda alohida bir shaxsning ongida shakllanishi va keyinchalik jamiyatning turli qatlamlariga yoyilishi mumkin.

G'oyalarning ikki yirik turi mavjud: bunyodkorlik g'oyalari va buzg'unchilik g'oyalari. O'z-o'zidan ayonki, insoniyatning taraqqiyotiga xizmat qilgan va ezgu fikrlar, ezgu maqsadlar sari kishilarni safarbar etadigan g'oyalar bunyodkorlik g'oyalaridir.

Aksincha, insoniyatning tanazzuliga sababchi bo'ladigan, turli yovuzliklar, bosqinchiliklar sodir bo'lishiga zamin hozirlaydigan g'oyalar buzg'unchilik g'oyalaridir.

Bulardan tashqari g'oyalar quyidagi shakllarga bo'linadi:

ilmiy g'oyalar, badiiy g'oyalar, ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, axloqiy g'oyalar, huquqiy g'oyalar, estetik g'oyalar, diniy g'oyalar, falsafiy g'oyalar, milliy g'oyalar va umuminsoniy g'oyalar shular jumlasidandir.

Har qanday nazariya yoki ta'limot bir tizimga solingan g'oyalar majmuidan iborat bo'ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch-e'tiqodning asosini ham g'oya tashkil etadi. Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning, millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi.

O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar va vositalar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi.

Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyatdagi har xil tabaqa va qatlamlarning mafkurasi turlicha bo'lishi tabiiy. Buning asosida manfaatlarning turlichaligi, ularni qondirish imkoniyatlari va uslublarining har xilligi yotadi. Sinfy qutblashuv kuchaygan, sinfiy kurash avj olgan (yoki sun'iy ravishda keskinlashtirilgan) tuzumlarda mafkura o'ta siyosiyloshadi, aholini o'zaro qarama-qarshi qilib qo'yadi.

Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida birlashishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasi aynan jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida yakdil harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning o'ziga xos o'rni bo'lishiga erishishga safarbar etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov mafkuraga shunday ta'rif bergan: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rni aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'pri bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman»². Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq-ravshan charog'on etadigan mayoqdir.

Fuqarolarda Vatan tuyg'usini shakllantirish, xalq, millat, Vatan manfaatini o'z manfaatlaridan ustun qo'ya olish fazilatini shakllantirish uchun ham eng avvalo milliy g'oyani shakllantirmoq zarur. Chunki, milliy g'oya inson tafakkurining mazmunini, uning miqyosini va madaniyatini belgilaydigan ijtimoiy hodisadir. Jamiyatdagi yakka shaxslarning dunyoqarashi asosida jamiyatning umumiy milliy g'oyasi yuzaga keladi. Shu o'rinda yana bir karra milliy g'oya tushunchasining mazmun va mohiyatiga to'xtalib o'tish zarur.

Milliy g'oya- jamiyat a'zolarining. mushtarak maqsadlari, orzu va intilishlari, manfaat va muddaolarini birlashtirib turgan umumiy g'oyalar tizimi bo'lib, u jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, u kishilarning olam va uning o'zgarishi, taraqqiyot istiqboli, odamlarning turmush tarzi va aqidalari haqidagi ilmiy-falsafiy, siyosiy-huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqa qarashlar va tasavvurlar majmuidir.

Demak, milliy g'oya ham, mamlakatimizda yashaydigan barcha fuqarolarning mushtarak manfaatlarini belgilaydigan va umumiy qarashlarini birlashtiradigan, e'tiqodlariga aylangan g'oyaviy yaxlitlik bo'lishi lozim. Milliy mustaqillik milliy g'oyasi deganda esa, milliy voqeligimizdan, mavjudlik qonuniyatlarimizdan kelib chiqadigan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy ehtiyojlari va manfaatlarining tub ustuvor va salohiyatli muammolarini ilmiy asosda hal etib, taraqqiyotimizning maqsad va vazifalarini belgilash, ularni ro'yobga chiqarishda insonparvar, adolatli yo'l, usul hamda vositalarni belgilovchi g'oya va fikrlar majmuini tushunish mumkin.

Nima uchun milliy g'oyani shakllantirish bugungi kun talabi? - deya savol tug'ilishi tabiiy.

Birinchidan, jamiyatning rivojlanishi, olg'a intilishi va millatimiz, hamda mamlakatimizdagi barcha fuqarolar shu maqsad yo'lida birlashishi uchun ham milliy g'oya zarur;

² Islom Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. «O'zbekiston», 7-jild, 89-bet.

Ikkinchidan, vatandoshlarimizda milliy madaniyat, milliy ong, milliy g'urur va iftixor, Vatanni sevis va uni asray bilish, tinchlikning qadriga yetish va saqlash kabi fazilatlarning shakllanishida milliy g'oya muhim ahamiyat kasb etadi;

Uchinchidan, milliy g'oya xalqimizning kuch-qudrati va imkoniyatlariga, g'oyaviy-siyosiy jihatdan bir butun va yaxlitligiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan mahalliychilik, guruhbozlik, qabila-urug'chilik munosabatlariga qarshi kurash olib borishga keng jamoatchilikni da'vat eta oladi; To'rtinchidan, mamlakatimiz fuqarolarida, xususan yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish, har xil yovuz oqimlar ta'siridan himoyalash uchun ham milliy g'oyani shakllantirish zarur;

Beshinchidan, bugungi kunda jamiyatimizga jiddiy xavf solayotgan tahdidlar, uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik, terrorizmga qarshi kurashish uchun ham fuqarolar, xususan yoshlar milliy g'oya ruhida tarbiyalangan bo'lishlari lozim.

Milliy g'oyani faqatgina bir millat yoki xalqning milliy g'oyasi deb tushunish to'g'ri emas. U muayyan davlat yoki jamiyatning umumiy milliy g'oyasi ham bo'lishi mumkin. Milliy nafaqat muayyan etnik birlik, balki «davlat» ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Masalan, «milliy daromad», «milliy qurolli kuchlar» birikmalarida u aynan «davlat» so'zining ma'nodoshi sifatida ishlatilmoqda. Millat hududiy, iqtisodiy, siyosiy va etnik aloqalar (madaniyat, til, o'z-o'zini anglash) umumiyliги zamirida yuzaga keladigan etnosotsial birlikdir. SHuning uchun ham milliy g'oyaning ta'rifida ham ana shu xususiyat o'z ifodasini topgan.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi siyosiy va iqtisodiy qaramlikka tushgan davrlarda ham hech qachon ma'naviyat sohasida o'zg'oyaviy mustaqilligini yo'qotgan emas. Lekin teran tomirlarga ega bo'lgan bu ma'naviy sarchashmalarimiz ko'p asl xalq farzandlarini va ziyolilarini qurbon qilishlari evazigagina saqlanib qolindi. Ana shu ajdodlarimizning jasoratini unutmaslik, ular xotirasini ulug'lash va yoshlarga o'rnak qilib ko'rsatish, haqiqiy vatanparvar yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, mustaqillikni mustahkamlash uchun ham milliy g'oyani izchillik bilan rivojlantirib borish zarur.

Milliy g'oya – muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir. «G'oya» va «milliy g'oya» tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lishi bilan bir qatorda, bir-biridan tubdan farq qiladi. SHu o'rinda «nega?» degan savol tug'ilishi tabiiy.

Birinchidan, milliy g'oya g'oyaga nisbatan ham mazmunan, ham hajman

kengroq tushuncha;

Ikkinchidan, har qanday milliy g'oya ijtimoiy voqelikni saqlab qoladi yoki o'zgartiradi, biror bir maqsad sari yo'naltirilgan g'oyalar milliy g'oyaning o'zagini tashkil etadi;

Uchinchidan, har qanday ijtimoiy g'oya faqatg'oyaviy qarashlar doirasidagina o'zining uyushtiruvchilik va yo'naltirilganlik salohiyatini, jozibadorlik kuchini namoyon qila olishi mumkin.

Milliy g'oyalarning falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlari mavjud.

Milliy g'oyaning **falsafiy** ildizlari falsafa ilmi xulosalariga tayanadi. Yevropa xalqlarining har biri Uyg'onish davri hamda o'rta asrlarda o'z davlatchiligini tiklash jarayonida milliy-falsafiy ta'limotlar asosida o'ziga xos milliy g'oyasini yaratgani buning yaqqol dalilidir.

Milliy g'oyaning **dunyoviy** ildizlari deganda, ma'rifiy taraqqiyotga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar tizimi tushuniladi.

Milliy g'oyaning **diniy** ildizlari deganda, uning diniy qadriyatlardan oziqlangan g'oyaviy-ruhiy asoslari tushuniladi. Masalan, xitoyliklarning milliy milliy g'oyasi hisoblangan, uning e'tiqodi va dunyoqarashi asoslarini belgilab kelgan Konfutsiy va Lao-TSzi ta'limotlari diniy qarashlarga asoslangan.

Milliy g'oyaning quyidagi shakllari mavjud: ilmiy, noilmiy, progressiv, reaksion, milliy, real, utopik, konservativ, ozodlik milliy g'oyasi, mustabidlik milliy g'oyasi, jaholatni yoqlovchi milliy g'oya, ma'rifatni ilgari suruvchi milliy g'oya.

Agar muayyan bilimlar, qadriyatlar va maqsadlar tizimi bo'lgan milliy g'oya bo'lmas ekan, kishilarda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini to'la to'kis anglash imkoniyati bo'lmaydi, davlat, jamiyat o'z taraqqiyot yo'lini yo'qotadi. Jamiyatda kuchli milliy g'oya shakllanishi uchun odamlarda kuchli e'tiqod tarbiya topishi zarur. SHu ma'noda, **milliy g'oya e'tiqodlar majmui hamdir**. CHunki, odamlar muayyan bir g'oyaga chin yurakdan ishonsalar, unga e'tiqod qilsalar, uning ortidan ergashadilar, hamda uni amalga oshirishga harakat qiladilar.

Har qanday milliy g'oya quyidagi asosiy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

-muayyan g'oyaga ishontirish; -uyushtirish; -safariylik; -ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish; -g'oyaviy tarbiyalash; -g'oyaviy immunitetni shakllantirish; - harakat dasturi bo'lish.

Har qanday milliy g'oyada, bir tomondan, odamlarning o'zlarini o'rab turgan voqelik, ijtimoiy munosabatlar to'g'risidagi bilimlar jamlansa, boshqa tomondan, shu bilimlar asosida sodir bo'lgan, bo'layotgan, bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlarga baho beriladi. SHuningdek, har ikki holatni umumlashtirish orqali mavjud ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolish, rivojlantirish yoki o'zgartirishga qaratilgan maqsadlarni o'z ichiga olgan fikrlar namoyon bo'ladi.

2.2. Milliy g'oyada milliy rivojlanish va demokratiya tushunchalarining o'zaro munosabati.

Har qanday jamiyat o'ziga xos rivojlanish yo'lini tanlar ekan, oldiga muayyan maqsad va vazifalarni qo'yadi. Zero, bu vazifalar jamiyat, davlat, xalq va millat taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ma'rifiy, ta'lim-tarbiya va mafkuraviy jarayonlarning uzviy birligi asosida amalga oshadi.

Inson hech qachon tashqi dunyodan, o'zini qurshab olgan olamdagi o'zgarishlar, ro'y berayotgan hodisalar, voqea jarayonlardan ajralib qoqlan, ularni his etmagan holda ularning ta'sirisiz yashay olmaydi. Xalqlar, millatlar, ijtimoiy-siyosiy kuchlar faoliyatida sodir bo'lgan turli mazmundagi hodisa va jarayonlar, ayniqsa g'oyaviy hamda mafkuraviy omillar odamlar ongi, tafakkuri va dunyoqarashiga ta'sir etadi.

Hayotdada maqsadi, yuksak g'oyasi, ezgu orzu – intilishlari bo'lmagan inson va jamiyat a'zolari tabiiy ehtiyojlar doirasi bilan chegaralanib, ma'naviy yuksaklikka erishishi qiyin. Ayrim yovuz kuchlar ta'sir o'tkazish orqali o'z g'arazli niyatlariga yetish maqsadida foydalanishlari mumkin. SHu sababli barcha davrlarda inson va jamiyat o'z maqsad muddaoalarini ifoda etadigan manfaatga zid bo'lgan zararli va begona g'oyalarga qarshi turadi. Har bir xalq, millat va jamiyat o'z manfaatiga xizmat qilib, uning taraqqiyotini ta'minlashga yordam beradigan muayyan g'oyaga ehtiyoj sezadi.

Binobarin, g'oya muayyan millat va xalqning maqsad - muddoalari, manfaatlari zahirida shakllanadi xamda takomillasha boradi. Milliy istiqlol g'oyasi xam millat manfaatlari, xalqning orzu-istaklarini o'zida mujassamlashtiradi. U o'zining hayotdabaxsh g'oyalari, buyuk maqsadlari bilan o'z kuch g'ayrati, aql-zakovati va xatto hayotdai, buyuk g'oyalar yo'lida baxsh etishga tayyor komil insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Mafkura va g'oyalar tarixiy taraqqiyotda yetakchi mavqelaridan birini egallaydi. Insoniyatning ko'p ming yillik o'tmishi buni yaqqol tasdiqlaydi. Er yuzida dastlabki odamzod paydo bo'lib, uning urug', jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi ro'y bergan dastlabki davrlardayoq ularni birlashtirib turadigan umumiy g'oya va mafkuraga ehtiyoj tug'ildi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «CHunki, mafkura - jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi»³.

Milliy istiqlol g'oyasining hayotimiz jarayoniga singib ketishini ta'minlash uchun g'oyalar amaliy harakatlarga aylanishi jarayonini sinchiklab o'rganish lozim. Buning uchun dastavval, g'oya bevosita amaliyotga, amaliyot dasturiga aylanishi mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, bu jarayon qanday yuz beradi? degan savollarga javob topish zarur.

Zamonaviy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar nuqtai nazaridan bu savolga "ko'pincha aylanmaydi" deb javob berish kerak. CHunki inson ongida, miyasida o'nlab, yuzlab va hatto minglab g'oyalar bo'ladi. Ularning barchasi ham amaliyotga aylanavermaydi. CHunki, ayni bir inson ongida ayni bir paytning o'zida o'nlab turli xil, jumladan, diniy, ahloqiy,

³ Islom Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – «Fidokor» gazetasi, 2000 yil, 8 iyun.

siyosiy, ilmiy, badiiy va boshqa xil g'oyalar bo'lishi tabiiy. Ular bir-birlarini to'lg'azishi va ko'pincha bir-birlariga to'la mos kelmasligi mumkin. Natijada, shaxs bu g'oyalardan eng zarurlarini va o'zi eng to'g'ri, deb bilganlarini ajratib hayotga tadbiq qiladi yoki unga amal qiladi. Ana shu tanlash, ya'ni g'oyaning amaliyotga o'tishidagi muhim bosqichni to'laroq va chuqurroq anglash uchun shu tanlash mezonlarini aniqlab olish zarur.

G'oyalarni saralashda shaxs foydalanadigan mezonlarning eng muhimlaridan biri, saralab olinayotgan g'oyaning yoki maqsadning shaxs, millat, xalq yoki jamiyat manfaatlariga, ehtiyojlariga, qurilmalariga, e'tiqodiga mosligidir. Bu hodisalar, ya'ni manfaatlar, ehtiyojlar, ustanovkalar, e'tiqodlar va ularning g'oyalar bilan o'zaro aloqadorligi murakkab. Buning ustiga bu muammo jahon fanida ham kam o'rganilgan. Mamlakatimiz psixolog olimlari bu muammo ustida endi bosh qotira boshladilar.

Mustaqillikni ham ozodlikka o'xshatish mumkin. Ular - egizak. Mustaqilliksiz ozodlik bo'lmaydi va aksincha - ozodliksiz mustaqillikka erishib bo'lmaydi. Mustaqillikni himoya qilish uchun jon fido qilishga tayyor o'g'lonlar bo'lmasa u qurib qoladi. Mustaqillik daraxti gullab-yashnashi uchun uning poyiga ko'proq ter to'kish kerak. Vatan o'g'il-qizlari qanchalik ko'p mehnat qilib ter to'ksalar, mustaqillik daraxti, uning ildizlari, ildizlari orasidagi o'qtomir-milliy istiqlol g'oyasi shunchalik barq urib rivojlanadi. Lekin faqat ma'rifat bilan qanoatlanilsa, nari borganda istiqlol g'oyasini izohlab, tushuntirib berish mumkin, izohlash va tushuntirish yo'li bilan esa odamlarning faqat fikriga, xotirasiga ta'sir o'tkazsa bo'ladi.

Milliy istiqlol g'oyasining mohiyatiga monand tarzda uni yoshlar va aholi ongiga singdirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ma'rifiylik bilan cheklanmay e'tiqodni shakllantirish uchun amaliyotga yo'naltirilishi muhim. Buning uchun esa e'tiqodning o'ziga xos xususiyatlari, uning shakllanishidagi bosqichlar, murakkabliklar, nozikliklarni doimo yodda tutish zarur bo'ladi.

Xulosa.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: «Ўзбекистон», 2003..(2003 йил 24 апрелдаги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ тузатиш ва қўшимчалар киритилган янги нашри).
2. Абу Наср Форобий «Фозил одамлар шаҳри» Т.: «Ғафур Ғулом», 1993.
3. Каримов И. А. «Жамиятимиз миллий ғояси халқни халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин» Т.: «Ўзбекистон», 1998.
4. Каримов И.А. «Миллий ғоя халқ эътиқоди ва буюк келажагига ишончдир» Т.: «Ўзбекистон», 2000.
5. Каримов И. А. Юксак маънавият –енгилмас куч. – Т.: “Маънавият” нашриёти, 2008 йил.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2011 йил.
7. Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар(қўлланма). Т.: «Янги аср авлоди», 2001 йил.
8. Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар.(дарслик) Т.: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти», 2003 йил.
9. Н.Жўраев. Ш. Азизов. «Ижтимоийёт асослари».Т.: «Маърифат-Мадаккор», 2003.
10. А.Ғадойбоев, С. Раҳимов. «Олтин ўтда, одам меҳнатда тобланади»(савол-жавоблар).Т.: «Янги аср авлоди», 2003 йил..
11. «Тафаккур», «Мулоқот» журналларининг 2004-2005 йиллардаги нашрлари.